ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№10(5)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 128 sahifa,
26-oktyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI
Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Karimova E.G. – Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Raxmonova Z. A. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Sayimova D. K. – texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:
Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor
Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor
Rakhmonova Z.A. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Sayimova D. K. – Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics
Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences
Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA CODEPЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA

Informatika darslarida algoritmik topshiriqlar orqali 5–6-sinf o‘quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish metodikasi 10
Muyassar Xodjiyeva Maxmudjanovna

Maktabgacha ta’limda matematikani o‘qitishda o‘yin texnologiyalaridan foydalanish 17
Samatova Xuvvaydo Rasulovna

Asliyat va fransuzcha tarjimalardagi toponimlarning struktur-grammatik modellari 22
Valijon Mamadjonov Alixanovich

“Tarbiya” darslarida raqamli hikoyalar orqali o‘quvchilarda halollik, mas’uliyat va mehr-oqibat fazilatlarini shakllantirish 26
Abdullayeva Surayyo Babojonovna

Kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvning imkoniyatlari 32
Komiljonova Mohinur Alllabergan qizi

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarida kasbiy kompetentlikni takomillashtirishda modellashtirishning o‘rni 37
Mamadaliyeva Marhabo Xolmamatovna

Raqamli keyslar asosida bo‘lajak pedagoglarning ijtimoiy-pedagogik profilaktik faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish 43
Raximov Sardorbek Kabulovich

Teskari sinf modeli asosida amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlikni tashkil etish metodikasini takomillashtirish 48
Tursunbayeva Sevinch Normurod qizi, Saidov O‘tkirjon Mallayevich

Sinfni boshqarishdagi muammolar va ularning amaliy yechimlari 53
Xidirov Baxrom Dobilovich

Loyiha texnologiyasining lingvodidaktik asoslari 60
Muhammadaziz Omonov

O‘smirlarda egoizm psixodiagnostikasi 65
Karayeva Yulduz Xushbakovna

Oliy pedagogik ta’limda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning integrativ yondashuvga asoslangan metodikasi 69
Jo‘rayev Shuxratbek Maxamadaliyevich

Inklyuziv ta’lim sharoitida logopedik yordamni tashkil etishning tashkiliy-pedagogik mexanizmlari 73
Azimova Dilnoza Sherzodovna

Talabalarda ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirishning psixologik omillari 76
Baxriyeva Nargiza Axmadovna

Bolalar adabiyoti vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloqiy tanlov kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi 81
Duschanova Nilufar Sabirbayevna, Nurmetova Nazokat Baxtiyorovna

Nogiron farzandli onalarda psixologik farovonlikning himoya resurslari: nazariy-metodologik tahlil 86
Kasimova Xulkar Atabayevna

Intellektual rivojlanishida buzilishlari bo‘lgan o‘quvchilar bilan korreksion-logopedik ishda vizual tayanchlar va muqobil kommunikatsiyani qo‘llash modeli 90
Raximova Dildora Saidbasitovna

Дети с комплексными нарушениями развития 93
Д. Т. Ганурова

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlik qobiliyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik mohiyati ... 97
Mavlyanova Umida Sadikjanovna

Nizolarning yuzaga kelishidagi shart-sharoitlar, shaxs toifalari va ularning xislatlari 101
Choriyeva Durdona Anvarovna, Malikova Umida Nurliboy qizi, Lutfullayeva Iroda Abduvahob qizi

Ijtimoiy tarmoqlarning talaba yoshlar milliy qadriyatlariga ta'sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari 106
Turg'unov Baxromjon Raximjonovich

Tarbiyachi-pedagoglarda deontologik kompetensiyani rivojlantirishning metodologik yondashuvlari 112
Davlatova Dildora Hayotovna

Autizm spektri buzilishiga ega bolalarda nutqiy muloqot ko'nikmalarini shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari..... 115
A. B. Mamatova

Davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifati monitoringi va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish 123
Mongiyev Abdulxokim Ibragimovich

DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDAGI NODAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM SIFATI MONITORINGI VA BOSHQARUV MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH



Mongiyev Abdulxokim Ibragimovich
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, tayanch doktoranti

ORCID: 0009-0007-3545-8379

Annotatsiya: Maqolada davlat-xususiy sheriklik (DXSH) asosida faoliyat yurituvchi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini monitoring qilish va boshqarish masalalari o'rganiladi. Mavzuning dolzarbligi tashkilotlar faoliyatida sifatni baholash va boshqaruv qarorlarini uyg'unlashtirish zarurati bilan izohlanadi. Tadqiqotning maqsadi DXSH bitimi ijrosi hamda ta'lim-tarbiya sifati monitoringini o'zaro bog'lovchi modelni asoslashdan iborat. Normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish, tizimli yondashuv va qiyosiy umumlashtirish usullari qo'llanildi. Bitim majburiyatlari ijrosini monitoring qilish bilan pedagogik jarayon sifatini baholash vazifalari farqlab ko'rsatildi. Resurslar, pedagogik jarayon, bola farovonligi va rivojlanishi, DXSH bitimi ijrosi hamda takomillashtirish choralarini qamrab oluvchi besh yo'nalishli monitoring modeli taklif etildi. Mazkur yondashuv dalillarni boshqaruv choralarini belgilash va natijalarni qayta baholash bilan bog'lashni nazarda tutadi. Modelni amaliyotga joriy etishdan avval uni DXSHning turli shakllarida sinovdan o'tkazish tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: davlat-xususiy sheriklik, DXSH, nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti, ta'lim sifati, monitoring, ichki baholash, sifat menejmenti, uzluksiz takomillashtirish.

Abstract: The article addresses the monitoring and management of education quality in non-state preschool organizations operating under public-private partnership (PPP) arrangements. The relevance of the issue lies in linking quality assessment to management decisions. The study aims to substantiate a model that integrates the monitoring of PPP agreement implementation with the assessment of educational quality. Legal document analysis, a systems approach, and comparative synthesis were employed. The responsibilities associated with contractual compliance monitoring and pedagogical quality evaluation are distinguished. A five-domain monitoring model is proposed, covering resources, pedagogical processes, children's well-being and development, PPP agreement implementation, and improvement measures. The approach links evidence to management actions and subsequent reassessment. Pilot implementation across different PPP arrangements is recommended before wider application.

Key words: public-private partnership, non-state preschool organization, education quality, monitoring, internal evaluation, quality management, continuous improvement.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы мониторинга и управления качеством образования в негосударственных дошкольных образовательных организациях, действующих на основе государственно-частного партнерства (ГЧП). Актуальность темы обусловлена необходимостью согласования оценки качества с управленческими решениями. Цель исследования – обосновать модель, связывающую контроль исполнения соглашения о ГЧП с оценкой качества образовательного процесса. Использованы методы анализа нормативно-правовых документов, системный подход и сравнительное обобщение. Разграничены задачи контроля исполнения договорных обязательств и оценки качества педагогического процесса. Предложена модель мониторинга по пяти направлениям: ресурсы, педагогический процесс, благополучие и развитие ребенка, исполнение соглашения о ГЧП и меры по совершенствованию. Предусматривается использование собранных данных для принятия управленческих решений и повторной оценки результатов. До практического внедрения модели рекомендуется провести ее апробацию в организациях, работающих в рамках различных форм ГЧП.

Ключевые слова: государственно-частное партнерство, дошкольное образование, качество образования, мониторинг, внутренняя оценка, управление качеством.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim bilan qamrovni kengaytirishda davlat-xususiy sheriklik (DXSH) xususiy sarmoya, tashabbus va boshqaruv resurslarini jalb qilish imkonini beradi. Biroq xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar sonining ko'payishi ta'lim sifatining o'z-o'zidan bir xil darajada ta'minlanishini anglatmaydi. Sifatni samarali boshqarish uchun bolalarga ko'rsatilayotgan kundalik ta'lim-tarbiya xizmatlarining mazmuni, xavfsizligi, pedagogik muloqot va rivojlanish natijalari muntazam tahlil qilinishi kerak.

Maqolaning maqsadi DXSH asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifati monitoringini ichki baholash va boshqaruv qarorlari bilan birlashtiradigan amaliy modelni asoslashdan iborat.

Tadqiqot obyekti sifatida mazkur tashkilotlarda ta'lim sifatini boshqarish jarayoni, predmeti sifatida esa ushbu jarayonning indikatorlari, dalil manbalari, mas'ul subyektlari va takomillashtirish sikli ko'rib chiqiladi.

Tadqiqot vazifalari sifatida DXSH bo'yicha shartnomaviy majburiyatlar va ta'lim sifati indikatorlarini farqlash, baholash uchun dalil manbalari hamda mas'ul subyektlarni belgilash, shuningdek, monitoring natijalarini ichki takomillashtirish choralari bilan bog'lash masalalari belgilanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonunida maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun majburiy ekani belgilangan [1]. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi 802-son[1] qarori standart talablarini joriy etish va ularga rioya etilishini nazorat qilish asoslarini belgilaydi [2].

2023-yildagi PQ-316-son[2] qaror esa DXSHning turli shakllarida davlat sherigi va xususiy sherikning vazifalarini, jumladan, bitim shartlarining bajarilishini monitoring qilish bo'yicha mas'uliyatni aniqlashtiradi [3]. Shunday qilib, sifat menejmentida davlat standarti talablari va sheriklik bitimi bo'yicha majburiyatlarni o'zaro bog'lash muhim vazifa hisoblanadi.

Maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan o'tkazish hamda ta'lim sifati monitoringi bilan bog'liq tashkiliy-huquqiy masalalar Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 14-fevraldagi 91-son[3] qarori doirasida ham tartibga solinadi [4]. Ushbu me'yoriy manbalar ta'lim sifati va DXSH bitimi ijrosini baholashda turli dalil manbalari hamda mas'uliyat yo'nalishlarini alohida ko'rib chiqishga asos bo'ladi.

Xalqaro qiyosiy manba sifatida UNICEFning maktabgacha ta'lim va parvarish xizmatlari uchun monitoring va baholash tizimini ishlab chiqishga doir materiallari ko'rib chiqildi. Ularda miqdoriy va sifat ma'lumotlarini uzluksiz yig'ish, turli xizmat shakllarini qamrab olish hamda ma'lumotlardan sifatni yaxshilash maqsadida foydalanish tamoyillari yoritiladi [5]. Ushbu tamoyillar milliy sharoitga moslashtirilgan holda qo'llanishi lozim; boshqa mamlakatlar tajribasidagi indikatorlar yoki tartiblarni bevosita ko'chirish taklif etilmaydi.

Sifat menejmentining rejalashtirish, amalga oshirish, tekshirish va takomillashtirishga asoslangan uzluksiz sikli W. Edwards Demingning boshqaruvga oid yondashuvi bilan bog'liq [6].

Ko'rib chiqilgan manbalardan kelib chiqib, maqolada DXSH bitimi ijrosini monitoring qilish va pedagogik jarayon sifatini baholash natijalarini yagona boshqaruv sikli doirasida, biroq alohida dalil manbalari asosida uyg'unlashtirishga e'tibor qaratiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish, sifat menejmentiga tizimli yondashuv, qiyosiy o'rganish va nazariy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tahlil O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qonunchiligi, davlat standarti, DXSHni tartibga soluvchi hujjatlar, attestatsiya va ta'lim sifati monitoringiga doir normalar, shuningdek, xalqaro metodik manbalarga qaratildi [1–6].

Qiyosiy o'rganish orqali DXSH bitimi ijrosini nazorat qilish hamda ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini baholash mezonlari ajratildi.

Tizimli yondashuv asosida resurslar, pedagogik faoliyat, bolaning farovonligi va rivojlanishi, bitim majburiyatlari hamda boshqaruvning javob choralarini o'zaro bog'lovchi yo'nalishlar yaxlit monitoring tizimi sifatida tavsiflandi. Nazariy umumlashtirish orqali indikatorlar, dalil manbalari va kuzatuv davriyligiga doir takliflar shakllantirildi.

Tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega: maqolada muayyan tashkilotlar bo'yicha empirik kuzatuvlar yoki statistik natijalar keltirilmagan. Shu sababli quyidagi indikatorlar va monitoring davriyligi amaliyotga tatbiq etish tavsiya qilinayotgan model sifatida taqdim etiladi; ular amaldagi normativ talablarda belgilangan ko'rsatkichlarning o'rnini bosmaydi.

1 https://lex.uz/uz/docs/-5179335
2 https://lex.uz/docs/-6619781
3 https://lex.uz/docs/-6800815

TAHLIL VA NATIJALAR

DXSH loyihasida kamida ikki xil hisobdorlik yo‘nalishi mavjud. Birinchisi, bitimda belgilangan shartlar, tomonlarning majburiyatlari va xizmatni uzluksiz tashkil etish bilan bog‘liq. Ikkinchisi, bolalarga ko‘rsatiladigan ta’lim-tarbiya xizmatining sifati va uning davlat standarti talablariga muvofiqligini qamrab oladi. PQ-316-son qarorga ko‘ra, davlat sherigi bitim shartlarining lozim darajada bajarilishini monitoring qiladi; oilaviy nodavlat tashkilotlar uchun esa tegishli vakolatli subyekt alohida belgilanadi [3]. Shu bois baholash jarayonida DXSH shakli va bitim taraflarini aniq ko‘rsatish lozim. Bitim majburiyatlarining bajarilishini tekshirish pedagogik jarayon sifatini to‘liq ifodalamaydi. Masalan, bino va jihozlarning mavjudligi muhim, biroq bu holat bolaning kun davomida qanday muloqot, o‘yin va individual qo‘llab-quvvatlash olayotganini ko‘rsatmaydi.

Aksincha, guruhdagi pedagogik faoliyatni kuzatishning o‘zi moliyaviy, tashkiliy yoki xizmat uzluksizligiga doir majburiyatlarni baholash uchun yetarli emas. Shuning uchun bu ikki yo‘nalish yagona boshqaruv sikli doirasida, ammo o‘ziga xos dalillar va mas’uliyatlar asosida yuritilishi kerak. Sifatni faqat bolalarning yakuniy ko‘nikmalari yoki ota-onalarning qoniqish darajasi bilan o‘lchash ham biryoqlama xulosa chiqarishga olib kelishi mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish sur’ati individual xususiyatga ega. Shuning uchun bolaning rivojlanish dinamikasi kuzatiladi, biroq alohida natijani tashkilotlar reytingining yagona mezoniga aylantirish tavsiya etilmaydi. Tashkilot faoliyatini resurslar, pedagogik jarayon, bola farovonligi va boshqaruvning javob choralarini birgalikda aks ettiruvchi dalillar asosida baholash maqsadga muvofiq.

Taklif etilayotgan model monitoringning besh yo‘nalishini qamrab oladi. Har bir ko‘rsatkich bo‘yicha dalil manbasi, ma’lumotlarni yig‘ish davriyligi va natijalardan foydalanish tartibi oldindan kelishiladi. Bu yondashuv nazoratni hujjatlarni yig‘ish bilan cheklamasdan, aniqlangan ehtiyojlarni aniq choralar ko‘rish va natijalarni qayta baholash bilan bog‘laydi.

1-jadval: **DXSH asosidagi tashkilotlarda ichki monitoring yo‘nalishlari va dalil manbalari**

Monitoring yo‘nalishi	Asosiy ko‘rsatkichlar	Dalil manbalari	Taklif etiladigan davriylik
Standart va resurslar	Davlat dasturiga muvofiqlik; pedagoglar malakasi va kasbiy rivojlanishi; xavfsiz, sog‘lom va bolalar uchun qulay muhit.	Hujjatlar tahlili, xodimlar ma’lumotlari, muhitni bevosita ko‘zdan kechirish.	Chorakda; yillik yakun
Pedagogik jarayon	Bola ishtirokini qo‘llab-quvvatlash; o‘yin va faoliyatlar mazmuni; pedagogik muloqot; individual va inklyuziv yondashuv; oila bilan hamkorlik.	Tuzilmali kuzatuv varaqasi, mashg‘ulot va faoliyat rejalari, ota-onalar fikri.	Oy davomida tanlama; chorakda tahlil
Bola farovonligi va rivojlanishi	Davomat va ishtirok; xavfsizlik holatlari; rivojlanish yo‘nalishlari bo‘yicha individual dinamika; maktabga tayyorgarlik bo‘yicha kuzatuvlar.	Pedagogik kuzatuv, bolaning rivojlanish qaydlari, davomat va hodisalar jurnali.	Har chorak; o‘quv yili yakuni
DXSH bitimi va boshqaruv	Bitimda ko‘rsatilgan xizmat shartlari va majburiyatlarning bajarilishi; xizmat uzluksizligi; shikoyat va murojaatlarga munosabat.	Bitim va ijro hujjatlari, boshqaruv qarorlari, murojaatlar reyestri, mavjud elektron ma’lumotlar.	Chorakda va bitim talabiga muvofiq
Takomillashtirish choralari	Aniqlangan muammolarning sababi; chora-tadbirlar bajarilishi; pedagoglar malakasini oshirish; qayta kuzatuv natijasi.	Ichki baholash hisoboti, mas’ul va muddat ko‘rsatilgan reja, qayta monitoring dalillari.	Har chorak; yarim yillik qayta ko‘rib chiqish

Jadvalda keltirilgan davriylik taklif etilayotgan ichki boshqaruv tartibini ifodalaydi. Davlat nazorati, attestatsiya, akkreditatsiya yoki DXSH bitimida belgilangan muddatlarga oid talablar tegishli normativ-huquqiy hujjatlar va bitim shartlariga muvofiq bajariladi. Ichki monitoringda ko‘rsatkichlarni tashkilotda mavjud dalillar bilan bog‘lash hamda bir xil ma’lumotni turli shakllarda takroran so‘rashni kamaytirish lozim.

Monitoringning amaliy qiymati yig‘ilgan ma’lumotlar hajmi bilan emas, balki ularning ta’lim jarayonini yaxshilashga qo‘shadigan hissasi bilan belgilanadi. Shu maqsadda tashkilotda quyidagi ketma-ketlikni joriy etish mumkin. Mazkur izchillik sifat menejmentidagi rejalashtirish, amalga oshirish, tekshirish va takomillashtirish sikliga mos keladi [6].

Yil boshida davlat standarti, tashkilotning o‘quv dasturi va DXSH bitimi shartlariga tayangan holda ustuvor sifat ko‘rsatkichlari hamda mas’ullar belgilanadi. Dalillar rejalashtirilgan manbalardan yig‘iladi: hujjatlar, pedagogik kuzatuvlar, bolalar rivojlanishiga oid qaydlar, davomat ma’lumotlari, xavfsizlikka oid ma’lumotlar va oilalarning fikrlari.

Natijalar bir nechta manbadan olingan dalillarni o‘zaro solishtirish orqali tahlil qilinadi. Masalan, qoniqish so‘rovi natijalari alohida emas, balki pedagogik kuzatuvlar va murojaatlar bilan birgalikda ko‘rib chiqiladi. Muammo aniqlansa, uning sababi, ko‘riladigan chora, mas’ul shaxs, muddat va natijani tasdiqlovchi dalil ko‘rsatilgan takomillashtirish rejasi tuziladi. Belgilangan muddatdan so‘ng qayta kuzatuv o‘tkazilib, ko‘rilgan chora muammoni kamaytirganmi yoki qo‘shimcha yordam zarurmi, degan savollarga javob aniqlanadi.

Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda vazifalarni tomonlar o‘rtasida aniq taqsimlash kerak. Davlat sherigi DXSH bitimi doirasidagi majburiyatlar va kelishilgan hisobotlarni ko‘rib chiqadi. Tashkilot rahbari ichki baholashni tashkil etadi va chora-tadbirlar ijrosi uchun javob beradi. Metodist hamda pedagoglar kuzatuv natijalarini qayd etib, pedagogik takliflar ishlab chiqadi. Ota-onalar xizmatdan foydalanish tajribasi haqida qayta aloqa beradi. Tashqi baholash natijalari ichki tahlil jarayoniga qaytarilib, takroriy muammolar bo‘yicha kasbiy-uslubiy yordam rejasini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Raqamli monitoring ma’lumotlarni yagona shaklda saqlash, takroriy hisobotlarni qisqartirish va chora-tadbirlar ijrosini kuzatishni yengillashtirishi mumkin. Bunda bolalar haqidagi shaxsiy ma’lumotlarga kirish vakolatlar asosida cheklanishi, tahliliy hisobotlarda esa zarur bo‘lmagan shaxsiy ma’lumotlar aks ettirilmasligi lozim. Elektron vosita monitoringning maqsadini almashtirmaydi: raqamli qaydlar pedagogik kuzatuv va mutaxassislar tahlilini qo‘llab-quvvatlaydi, biroq ularning o‘rnini bosmaydi.

Modelni joriy etishdan oldin uni DXSHning turli shakllaridagi bir nechta tashkilotda sinovdan o‘tkazish, direktorlar, pedagoglar va ota-onalarning fikrlarini olish hamda indikatorlarning aniqligi va o‘lchanish imkoniyatini tekshirish tavsiya etiladi. Sinov natijalariga ko‘ra, ko‘rsatkichlar qisqartirilishi yoki aniqlashtirilishi mumkin. Bu yondashuv turli moliyalashtirish va tashkiliy sharoitlarda faoliyat yurituvchi tashkilotlar uchun umumiy sifat talablarini saqlagan holda, ularning faoliyat xususiyatlarini hisobga olishga yordam beradi.

XULOSA

DXSH asosidagi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sifat menejmenti bitim majburiyatlari ijrosini nazorat qilish va ta’lim-tarbiya jarayonini baholashni yagona, ammo farqlangan tizim doirasida birlashtirishi lozim. Davlat standarti barcha tashkilotlar uchun umumiy sifat mezonlarini belgilaydi, DXSH bitimi esa hamkorlik doirasidagi aniq majburiyatlarni mustahkamlaydi. Dalil manbalari va mas’uliyat yo‘nalishlari alohida yuritilib, natijalar umumiy takomillashtirish rejasida birlashtirilganda monitoring boshqaruv uchun amaliy ahamiyat kasb etadi. Monitoring indikatorlari davlat standarti talablari va resurslar, pedagogik jarayon, bola farovonligi hamda rivojlanishi, DXSH bitimi ijrosi va takomillashtirish choralarini qamrab olishi kerak. Bolaning rivojlanish natijalari uning individual rivojlanish dinamikasi va pedagogik kuzatuvlar asosida talqin qilinishi lozim.

Alohida ko‘rsatkichlar tashkilot sifatini baholashning yagona mezoniga aylantirilmasligi kerak. Har bir aniqlangan muammo bo‘yicha uning sababi, ko‘riladigan chora, mas’ul shaxs, muddat va natijalarni qayta baholashni tasdiqlovchi dalil ko‘rsatilgan ichki takomillashtirish rejasi tuzilishi zarur. Taklif etilgan modelni amaliyotga joriy etishdan oldin uni DXSHning turli shakllaridagi tashkilotlarda sinovdan o‘tkazish, indikatorlarning tushunarliligi va dalillarni yig‘ish bilan bog‘liq ish yukini baholash maqsadga muvofiq. Kelgusidagi tadqiqotlarda mazkur modelni oilaviy va boshqa DXSH shakllaridagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tajriba-sinov tariqasida qo‘llash, shuningdek, ekspert baholashlari va amaliy ma’lumotlar asosida indikatorlar tizimini tekshirish zarur. Bu maqolada ilgari surilgan takliflarni empirik jihatdan asoslash va ularni tashkilotlar uchun ixcham metodik tavsiyalarga aylantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni, 2019-yil 16-dekabr, O‘RQ-595-son. https://lex.uz/uz/docs/-4646908
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori, 2020-yil 22-dekabr, 802-son. https://lex.uz/uz/docs/-5179335
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni yanada qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, 2023-yil 27-sentabr, PQ-316-son. https://lex.uz/docs/-6619781
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarini attestatsiyadan o‘tkazish hamda ta’lim sifati monitoringini amalga oshirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2024-yil 14-fevral, 91-son. https://lex.uz/docs/-6800815
5. UNICEF. Developing a Comprehensive Framework for Monitoring and Evaluation of Early Childhood Education and Care in the Czech Republic. October 2023. https://www.unicef.org/eca/reports/developing-comprehensive-framework-monitoring
6. Deming, W. Edwards. Out of the Crisis. Cambridge, MA: MIT Press, 1986.

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №10(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.